



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abduraxmonova Charos Burxonovna

Samarqand davlat universiteti mактабгача та'lим кафедраси о'қитувчиси

**BOLA SHAXSIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING
SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Annotatsiya. Ushbu makolada bola shaxsida agressiv xulq-atvorning vujudga kelishi, shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Bola shaxsi, agressiv xulq-atvor, ta'sir etuvchi omillar

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о факторах, влияющих на возникновение, формирование агрессивного поведения в личности ребенка

Ключевые слова. Личность ребенка, агрессивное поведение, влияющие факторы

Abstract. This article provides detailed information about the factors influencing the emergence, formation of aggressive behavior in the personality of a child

Keywords. Child personality, aggressive behavior, influencing factors

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki har bir oilaning tinch va sog'lom bo'lishi, ularda ijobjiy psixologik iqlimning hukm surishi mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti, taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotiga bog'liq bo'lib, bunda oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Faqat oilagina insonning baxtli bo'la olishi, o'zining kimlargadir kerakli his eta olishi yoki o'zini ezilgan, omadsiz sezishiga sabab



bo‘la oladi. Nosog‘lom psixologik muhitlar, nizo-janjalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o‘z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan balki atrofdagilarga, qolaversa, o‘zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz shavqatsiz, zolim, hudbin, yurt manfaatlariga zid, tashqi kuchlar ta’siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o‘z oilasi, o‘z xalqi, o‘z yurti uchun xavfli odam bo‘lib yetishishi mumkin.

Sog‘lom oila muhitida sog‘lom avlodlar tarbiyalanib kamol topadi. Aynan oila maskanida dunyoga kelgan go‘dak ijtimoiylashadi, ya’ni tug‘ilgan muhitiga moslashib ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish jarayonida boshqa kishilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini o‘rganib, farqlay boshlaydi, ya’ni oila a’zolarining misolida u boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rganadi. O‘zi va o‘zgalarning xulq-atvorini tushunib boradi. Ota-onaning o‘z farzandiga bo‘lgan munosabati, uning xatti-harakatiga nisbatan reaksiyalari, ota-onalar o‘rtasidagi munosabat xususiyatlari, oiladi uyg‘unlik yoki kelishmovchilik darjasи, yaqin qarindosh urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyati bolaning agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi, ayniqsa, balog‘at yoshida atrofdagilarga nisbatan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual va jamoaviy xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi. Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlichcha tushuntirishga qaratilgan nuqtai nazarlar mavjud. L.Berkovich nazariyasida agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi: 1) affekt yoki stress tipidagi emotsional qo‘zg‘alishning kuchliligi; 2) frustratsiyaning mavjudligi; 3) subyektning o‘z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi. Agressiv xulq-atvor inson bilan vaziyatning o‘zaro ta’siri natijasidir. Agressiv xulq-atvor asosini agressivlik motivi tashkil etadi. Agressiv xatti-harakatlar shaxsga ma’naviy, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazishi, destruktiv xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatishi bilan tavsiflanadi. Bunday xatti-harakatlarni bartaraf etishning psixologik qiyin tomoni shundaki, agressiv xatti-harakat qiluvchi shaxs o‘z xatti-harakatlarini oqlash uchun turli dalillarni keltiradi va o‘z aybini soqit qilishga urunadi. Agressiyaning tez-tez ifodalanishi shaxsning emotsional holati bo‘lib uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- asab-psixik kasalliklar, inson asab tizimining nihoyatda charchaganligi;
- oiladagi psixologik muhitning nosog‘lomligi va ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarining yetishmasligi;
- shaxsning xarakteri, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi.

Agressivlikning me’yordan ortishi natijasida shaxsda asab tizimining buzilishi, muloqot ehtiyoji va malakaning pasayishi, asab-psixik kasalliklar, o‘z-o‘ziga to‘g‘ri baho bera olmaslik, ishonch hissining yo‘qolishi, o‘zini-o‘zi boshqara olmaslik, xavotirlanishning ortishi, depressiya kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Agressiv xulq-atvorning namoyon bo‘lish sababini aniqlash, bunday xulq-atvorning oldini olish psixologiya fanidan inson tabiatidagi bu ko‘rinishni chuqur o‘rganish vazifasini qo‘yib, bugungi kunning talabiga aylanib bormoqda. XXI asrda agressiv shaxslar sonining ortib borayotganligi psixologiyada dolzarb muammo sanalmoqda. Bolalarda agressiv xatti-harakatlarni paydo bo‘lishi murakkat, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unga



ko‘p omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bola agressiv xulq-atvorni asosan 3 ta manbaadan olishi aniqlangan:

1. Nosog‘lom oila muhiti. Bunday oilada ota-onada va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning salbiy muhitining mavjudligi, oila a’zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, mojarolar, nizolar, oilada hamfikrlikning yo‘qligi muhim omil hisoblanib, bolalarda agressiv xulq atvorning shakllanishiga imkon yaratadi. Bunday oila muhitining ta’siri bolada xayotdan norozilik, alamzadalik, o‘ziga ishonchsizlik, har-xil psixik, asab, somatik kasallikkarda namoyon bo‘lishda ko‘rinadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Oilada bola mehr-muhabbatga, qadrlanishga, e’tiborga to‘yinib o‘smaganda, tashqarida tengqurlari bilan bo‘lgan munosabatda agressiv xatti-harakatlarni o‘zidagi bo‘shliqqa sindiradi va agressiv bolalar guruhidan joy topishga urunadi. Bola ongsiz ravishda o‘zini xo‘rlangandek his qilib, jinoyatchi guruhlarga qo‘shilib, o‘z agressiyasini chiqarishga harakat qiladi.

3. Internet axborot vositalari. Bola internet orqali o‘z tabiatiga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar bilan ham tanishadi. Televideniyyeda namoyish etiladigan turli jangari filmlar bolada agressiv xususiyatlarini shakllanishiga ta’sir qiladi. B.Mak-Kartinning tushuntirishicha, odatda kichkina qotillar, jinoyatchilar “tartibsizlik va sukunat hukm surgan, bir-birining his-tuyg‘usiga befarqlik, jismoniy zo‘ravonlik, bir-birini qo‘llamaslik va bir-birini taqdiri bilan qiziqmaslik mayjud bo‘lgan oilalarda” ulg‘ayadilar. Agar bola kichikligidan ota, ona yoki ularning ikkovi bilan ham yomon munosabatda o‘sgan bo‘lsa, ularni qo‘llab quvvatlashini his qilmasa, uni doim layoqatsiz hisoblashsa, o‘zini ota-onasiga nisbatan agressiv tutadi va jinoyat yo‘liga kirib ketadi. Onalari bolaning ehtiyojini qondirishga shoshilmagan go‘daklar onasi tezda qo‘liga, ehtiyojlarini qondirgan go‘daklarga qaraganda o‘zlarini agressivroq tutishdi. Demak, bunday agressiya bola ona bilan bo‘lgan munosabatda o‘z xavfsizligini his qilish darajasida vujudga kelar ekan. Onaga mustahkam bog‘langan bolaning o‘tmishida onasi tomonidan e’tibor qaratilganlik, ehtiyojlarining qondirilishi, onaning ziyrak munosabatidan bola o‘zini xavfsiz his qilishi mavjud. U boshqalarga ishonadi, yaxshi rivojlanadi, ijtimoiy ko‘nikmalarni tez shakllantiradi. Onaga mustahkam bog‘lanmagan, onaning e’tiboriga loyiq bo‘limgan, ehtiyojlari qondirilmagan, onasida ishonch qozonmagan, xavotirlanuvchi go‘dak, tahlikaga tushuvchi go‘dakga aylanadi (onasini etagiga yopishib oladi) yoki qochqoq bo‘ladi. Ular ota-onada berayotgan tarbiyadan qochadi, qarshilik ko‘rsatadi, impulsiv bo‘lib o‘sadi, janjalkashlik xulqida namoyon bo‘ladi. Yuqoridaq tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib aytish mumkinki, agressiyani vujudga keltiruvchi asosiy omil – bu bola tug‘ilib o‘sgan oila muhiti hisoblanar ekan. Oila muhitidagi shaxslararo munosabatlar, o‘zaro hurmat, oila a’zolarining qard-qiyomatga ega ekanligi, o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘lishi, oilada bola shaxsini hurmat qilish, uni to‘g‘ri ruhiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, bu masalani o‘rganish,



oilada sog‘lom muhitni shakllantirish, ota-onalarga farzandlar oldidagi burch va ma’suliyatlarini anglatish, ularni farzand tarbiyasiga oid bilimlar bilan qurrollantirish va shu orqali bolalarning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash bugungi kunda har bir oila a’zosi, mahalla-ko‘y rahbariyatining asosiy vazifasi bolishi darkor.

Adabiyotlar

1. Asadov Yu. "O‘smirlar deviant xatti-xarakatining psixologik xususiyatlari " Toshkent 2011.
2. Yadgarova N.F. "Psixopatologik sindromlar to‘plami" Toshkent 2014
3. Xakimova L. M. "Deviant xulq-atvor psixologiyasi" Toshkent 2014